

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR “DEVONI” DA KELGAN G‘AZALLARIDA OMONIM SO‘ZLAR

Qidirboyeva Muhsina Muzaffar qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Boburning “Devoni” da kelgan bir necha g‘azallar tahlilida omonim so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Tahlil davomida tur xil so‘z turkumidagi omonim so‘zlardan foydalanilgani ayon bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: Omonim, omofon, tajnis san’ati, so‘z turkumlari, g‘azallar, Bobur, devon, tuyuq janri, yuz, g‘amxo‘r

Annotation: This article contains the homonymous words in the analysis of several ghazals from Zahiriddin Muhammad Babur's "Devon". During the analysis, it became clear that homonyms from different word groups were used.

Key words: homonym, homophone, art of tajnis, word groups, ghazals, Babur, divan, tuyuq genre, face, care

Har bir asarda xoh u devon bo‘lsin xoh u roman bo‘lsin uni leksik jihatdan tahlil qilganda omonim yoki sinonim yo bo‘lmasa antonym so‘zlarni uchratamiz. Shu jumladan Boburning “Devoni” da ham xuddi shunday. Devondagi so‘zlarni tahlil qilishdan oldin avval omonim nima ekanligi va qayerdan keb chiqqanini qisqacha aytib o‘tsak.

Omonimlar (omo ... va yun. oputa — nom, ism) — umumiy ma’no unsurlariga ega bo‘lmagan, tasavvuriy bog‘lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so‘zlar hisoblanib, ular orasida semantik aloqa bo‘lmaydi. Ana shunday so‘zlarning tilda mavjud bo‘lishi va shunga bog‘liq hodisalar omonimiya deyiladi. Omonimlarning lug‘aviy va grammatik ko‘rinishlari farqlanadi.

Omonimlarning tilda paydo bo‘lish sabablari turlichadir: avvallari har xil aytilib, bir xil eshitiladigan so‘zlar talaffuzining tarixiy jarayonda tovush almashinishi yoki talaffuz o‘zgarishi natijasida bir-biriga mos kelib qolishi; (ot — ism, ot — hayvon; o‘t — olov, o‘t — o‘simlik) boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarning talaffuz va yozilish jihatidan ona tilidagi so‘zlarga mos kelib qolishi (turbosqich; tur-xil, nav); tilda mavjud bo‘lgan ko‘p ma’noli so‘z ma’nolarining bir-biridan uzoqlashishi (dam — nafas; dam — hordiq; dam — bosqon) va boshqa omonimlar bir yoki bir necha so‘z turkumi doirasida bo‘lishi mumkin: bir so‘z turkumi doirasida omonimik uya tashkil etuvchi, yozilishi va talaffuzi aynan bir xil bo‘lgan so‘zlar to‘liq yoki mutlaq omonimlar deyiladi (chang — g‘ubor, to‘zon; chang — cholg‘u asbobi); faqat ayrim shakllardagina mos keladigan, boshqa-boshqa so‘z turkumlariga mansub so‘zlar

notulik omonimlar, boshqacha aytganda, omoshakllar deyiladi: qo'y (hayvon) — qo'y (fe'lining buyruq shakli).

Omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san'ati va tuyuq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriq sifatida ishlatiladi. So'z ustalari, ayniqsa, shoirlar (Al-Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, So'fi Olloyor, Habibiy va boshqalar) poetik ta'sirchanlikni oshirishda omonimlar dan mahorat bilan foydalanganlar. Xorazmiyning: "Buyung sarvu sanubartek", "beling-qil", "Vafo qilgan kishilarga vafo qil" bayti yoki Alisher Navoiyning: Olmani sundi nigorim — ol, —dedi, Olma birla bu ko'ngilni ol, — dedi, So'rdim ersa olmasining rangini, Ne so'rarsan? — olma rangi ol, dedi.tuyug'i buning yorqin isbotidir. Dastlabki baytda qil so'zi 2 ma'noda (qilga o'xshash ingichka; qilmoq fe'lining o'zagi) ishlatilgan bo'lsa, tuyukda ol so'zi 3 ma'noda ishlatilgan (buyruq fe'li; ko'ngil ovlamoq; qizil rang , ol rang).

So'z leksik ma'nolarining paradigmatic munosabatlaridan biri o'z aksini omonimiyadatoradi. Shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar omonimlardir. Ikki yoki undan ortiq so'zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi¹. XI – XIV asrlardagi omonimlar xususida X. Daдабoев ilmiy izlanishlar olib borgan². Omonimiya munosabatlarini belgilashda til birliklarining ikki tomoni – ifoda va mazmun plani hisobga olinadi. Sinonimiya va antonimiya til birliklarining mazmun plani asosga olinsa, omonimiya ifoda plani yetakchi sanaladi. Ifoda plani deganda ikki jihat nazarda tutiladi: talffuz, aytilish (tovush ifodasi) va yozilishi (harfiy ifoda)³.

Omonimlarning tilda paydo bo'lish sabablari turlichadir: avvallari har xil aytilib, bir xil eshitiladigan so'zlar talaffuzning tarixiy jarayonda tovush almashinishi yoki talaffuz o'zgarishi natijasida bir-biriga mos kelib qolishi; boshqa tillardan o'zlashgan leksemalarning talaffuz va yozilish jihatdan ona tilidagi so'zlarga mos kelib qolishi; tilde mavjud bo'lgan ko'p ma'noli so'z semalarining bir-biridan uzoqlashishi va hokazo⁴. Omonimiya ikki xil hodisa mavjud: omonimlar va omoformalar. Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir. Ular omonim omoleksemalar deb ham ataladi. Omoformalar ayrim Grammatik shakllardagina teng keladigan so'zlardir. Ular omoforma omoleksemalar deb ham nomlanadi.⁵ Biz Bobur "Devoning" g'azal ruboiylari orasidan kelgan omonim

¹ Дадабoев X, Эски ўзбек тилида қиёслаш, ўхшатишнинг ифодаланиши // Лингвист IV.– Т.: Akademiya nashr, 2013.–Б. 4-11.

² Дадабoев X, "Девону луғотит турк"даги омонимлар хусусида // Ўзбек тилшунослиги масалалари . – №2. Қарши, 2012.–Б.12-20

³ Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –Т.: O'qituvchi, 1982. –Б.5.

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. –Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003.–Б. 539.

⁵ Jamolxonov X.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-qism. –Т.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. –Б. 41-42.

soʻzlarni topib, ajratib chiqamiz. Quyida Devonda kelgan baʼzi bir gʻazallari orasidan omonimlarni keltirib oʻtamiz.

كىلتورسه يوز بلانى اوشول بيوفا منكا
كىلسون اكر يوز و منى ايورسام بلا منكا

**Keltürsä yüz bälōni öšäl beväfä mägä,
Kelsün ägär yüzümni evürsäm, bälä mägä**

Ushbu misrada **yüz va yüzümni soʻzlari** ikki xil maʼnoda yaʼni birinchisi son ikkinchisi esa insonning yuzi maʼnosida kelmoqda. Keyingi misra “Topilmas” gʻazalidan olingan.

اغيار كوز اليدا اول يار عيان يوق
غم خارى كونكول ايچره غمخوار تابيلماس

**Ağyār köz ällidäyü ül yār äyān yoq,
Ĝam xāri köñül ičräyü ğamxor tāpilmäs.**

Bu yerda **Ĝam xāri** va **ğamxor** soʻzlari birinchisini maʼnosi gʻam beruvchi okkinchisiniki esa mehribon gʻamxoʻrlik qiluvchi maʼnosida biriga omonim soʻz hisoblanadi. Keyingi gʻazali “Bilsa kerak” nomli gʻazalidan parcha.

يار يوزومني كوروب دردو غميم بيلسه كراك
يوز كوروب دردو غميم جارسيني قيبسه كراك

**Yār yüzümni körb, dārdü ğamim bilsä kerak,
Yüz körüb, dārdü ğamim čārasini qilsa kerak.**

Baytda kelgan **yüzümni körb** va **Yüz körüb** soʻzlari birinchi yuz soʻzi bu inson yuzi ikkinchi yuz esa bu sanoq son maʼnosida oʻzaro omonimlik hosil qilgan. Keyingi gʻazal esa “Yana” deb nomlanadi.

ساجينينك سوداسي توشتي باشيمه باشدين ينى
تيره بولدي روزكاريم اول قراقاشدين ينى

**Sāčiniņ sävdāsi tušti bāšimä bāštīn yänä,
Tiyrä böldi rözgārim ül qārā qāštīn yänä.**

Ushbu misrada biz **bāšimä bāštīn** soʻzlarida bosh soʻzi bir xil shakldga ega boʻlsa ham oʻzaro maʼnosi boshqa ekanligi bilan omonim hosil qilganini koʻrishimiz mumkin. Birinchi bosh soʻzi bu insonning taʼna aʼzosi ikkinchi bosh soʻzi esa booshidan boshlamoq degan maʼnoda. Quyidagi misra ushbu gʻazalning davomidir.

تاش اورار أطفال ميني اويدل فارغ اول پري
تيلبه لارديك قيچقيرورمين هر زمان تاشدين ينه

**Tāš ürär ätfāl meni, üyidä färīg ül päri,
Telbälärdek qičqīrurmen här zāmān tāštīn yänä.**

Bu yerda **Tāš ürär va tāštīn** soʻzlari oʻzaro omonimdir.

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, “Devonda” kelgan har bir gʻazalda omonim soʻzlar qatnashgan. Ushbu omonimlar turli xil soʻz turkumlari oʻrtasida ot+ot yoki ot+sifat, ot+son, ot+feʻl, sifat+sifat va boshqalar mavjud. Asarda birgina soʻz turkumini emas deyarli barcha soʻz turkumdagi omonimlarni uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsam, avvalo tahlil menga juda yoqdi, chunki Boburning soʻz mahorati naqadar oʻtkir ekanligiga yana bir bor guvoh boʻldim. Asar tilidagi koʻchma maʼnolar turkiy tillarning semantic imkoniyatlarini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi. Omonimlar tahlili turkiy tillarga xos omonimiyani yoritishda, tajnis sanʼatini keltirib chiqaradi.

“Devonda” qatnashgan barcha omonim soʻzlar turkiy tilning qanchalik goʻzal ekanligini, shu bilan birga boy til ekanligini ifodalab bergan. Bu narsa Boburni ham qay darajada oʻz sohasining kuchli mutaxassisi boʻlganidan, adabiyotni qanchalar sevganida dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

1. Дадабоев Х. Эски ўзбек тилида қиёслаш, ўхшатишнинг ифодаланиши // Лингвист IV. –Т.: Akademnashr, 2013. –Б. 4-11.
2. Дадабоев Х. “Девону луғотит турк”даги омонимлар хусусида // Ўзбек тилшунослиги масалалари . – №2. Қарши, 2012. –Б.12-20
3. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. –Т.: Oʻqituvchi, 1982. –Б.5.
4. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. –Т.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. –Б. 539.
5. Jamolxonov X.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2-qism. –Т.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. –Б. 41-42.